


2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida Respublikamizda 2651 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1007 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2806 ta (18,3 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18155 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-avgust holatiga 18155 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,3 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,7 % savdo, 12,5 % sanoat, 11,3 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | Umumiy soni, birlik | | 01.08.2019 yil | |
|--|---------------------|----------------|---|--------------------|
| | 01.08.2018 yil | 01.08.2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| Jami | 15349 | 18155 | 118,3 | 100 |
| <i>shundan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1933 | 2074 | 107,3 | 11,4 |
| Sanoat | 1623 | 2261 | 139,3 | 12,5 |
| Qurilish | 1598 | 2047 | 128,1 | 11,3 |
| Savdo | 3180 | 4122 | 129,6 | 22,7 |
| Tashish va saqlash | 771 | 839 | 108,8 | 4,6 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 906 | 1110 | 122,5 | 6,1 |
| Axborot va aloqa | 309 | 328 | 106,1 | 1,8 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 281 | 342 | 121,7 | 1,9 |
| Boshqa turlari | 4748 | 5032 | 106,0 | 27,7 |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5596 ta), To'rtko'l (1862 ta), Beruniy (1507 ta) va Amudaryo (1366 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Taxtako'pir (324 ta), Mo'ynoq (372 ta) hamda Shumanay (443 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17723 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2869 taga (19,3 %) o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,7 % savdo, 12,5 % sanoat, 11,4 % qurilish, 11,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5520 ta), To'rtko'l (1770 ta), Beruniy (1475 ta) Amudaryo (1322 ta) va Ellikkala (1129 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (311 ta), Mo'ynoq (367 ta) hamda Shumanay (435 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-iyul oylarida 2651 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 61,2 % ga o'sgan.

Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (791 ta), To'rtko'l (276 ta), Amudaryo (204 ta) va Beruniy (189 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtakopir (32 ta), Qanliko'l hamda Shumanay (71 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda**
(femur va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (930 ta), sanoat (528 ta), qurilish (418 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (204 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (48 ta), axborot va aloqa (50 ta) hamda tashish va saqlash (74 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga 14142 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 3108 ta, oilaviy korxonalar - 932 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 9797 ta, unitar korxonalar - 133 ta, aksiyadorlik jamiyatlar - 28 ta va boshqalar 144 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1- avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 136 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 40,2 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokida korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Nukus shahrida (29 ta), Mo'ynoq (20 ta), Taxiato'sh (10 ta), Kegeyli va Nukus (9 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari To'rto'k va Xo'jayli (3 tadan) hamda Chimboy (4 ta) tumanlarida kuzatilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 78 tasi qo'shma korxonalar, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar kesimida soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|-------------------------------|----------------------------|--------------------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 136 | 100 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 6 | 4,4 |
| Beruniy | 8 | 5,9 |
| Qorauzak | 8 | 5,9 |
| Kegeyli | 9 | 6,6 |
| Qongirot | 5 | 3,7 |
| Qonlikol | 6 | 4,4 |
| Muynoq | 20 | 14,7 |
| Nukus | 9 | 6,6 |
| Taxiatosh | 10 | 7,4 |
| Taxtakupir | 6 | 4,4 |
| Turtkul | 3 | 2,2 |
| Xujayli | 3 | 2,2 |
| Chimboy | 4 | 2,9 |
| Shumanay | 5 | 3,7 |
| Ellikqala | 5 | 3,7 |
| Nukus sh. | 29 | 21,3 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 22 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar (9 ta yoki jamidagi ulushi 40,9 %), Beruniy, Mo'ynoq, va To'rtko'l tumanlari (2 tadan yoki 9,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Amudaryo, Qorao'zak, Kegeyli, Qanliko'l, Taxiatosh, Shumanay va Ellikkala tumanlari (1 tadan yoki 4,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 7 ta, Qozog'iston Respublikasi - 5 ta Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Britaniyaning Virginiya Orollari mamlakatlarida - 2 tadan, Niderlandiya Qirolligi va Turkiya Respublikasi - 1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (6 ta), savdo (8 ta), qurilish (2 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (4 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda hamda tashish va saqlashda (1 tadan) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1- avgust holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14066 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- avgust holatiga qaraganda 24,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4646 tasi (17,1 %) Nukus shahri, 1515 tasi (24,2 %) To'rtko'l, 1188 tasi (22,1 %) Beruniy hamda 1020 tasi (27,3 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
tumanlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14066 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4014 tasi (28,5 %) - savdo, 2182 tasi (15,5 %) - sanoat, 2007 tasi (14,3 %) - qurilish, 1926 tasi (13,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1080 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 811 tasi (5,8 %) - tashish va saqlash, 273 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, 242 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1531 tasi (10,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 2546 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 96,1 % oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (754 ta), To'rtko'l (266 ta), Amudaryo (202 ta) va Beruniy tumanlari (189 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtakopir (31 ta), Qanliko'l va Shumanay (70 tadan) hamda Qorao'zak (75 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (930 ta), sanoatda (528 ta), qurilishda (417 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (202 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (31 ta), axborot va aloqada (50 ta) hamda tashish va saqlashda (74 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-avgust holatiga 954 tani tashkil etib, ulardan 932 tasi yoki 97,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 63,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,3 % yoki 254 tasi sanoat, 26,0 % yoki 242 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,5 % yoki 247 tasi savdo, 6,5 % yoki 61 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 20 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 7 tasi qurilish, 1,9 % yoki 18 tasi axborot va aloqa hamda 8,4 % yoki 78 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat, savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa qurilish hamda tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|-------------------------------|------------------------|----------------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 276 | 100 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 80 | 29,0 |
| Beruniy | 10 | 3,6 |
| Qorauzak | 1 | 0,4 |
| Kegeyli | 9 | 3,3 |
| Qongirot | 10 | 3,6 |
| Qonlikol | 17 | 6,2 |
| Muynoq | 8 | 2,9 |
| Nukus | 10 | 3,6 |
| Taxiatosh | 23 | 8,3 |
| Taxtakupir | 4 | 1,4 |
| Turtkul | 23 | 8,3 |
| Xujayli | 13 | 4,7 |
| Chimboy | 4 | 1,4 |
| Shumanay | 2 | 0,8 |
| Ellikqala | 19 | 6,9 |
| Nukus sh. | 43 | 15,6 |

2019-yil yanvar-iyul oylarida 276 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,3 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Amudaryo tumanida (80 ta), Nukus shahrida (43 ta), Taxiatoch va To'rtko'l (23 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorao'zak (1 ta), Shumanay (2 ta) hamda Taxtako'pir (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,9 % yoki 77 tasi sanoat, 39,9 % yoki 110 tasi savdo, 17,0 % yoki 47 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 4,0 % yoki 11 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 5 tasi qurilish, 1,1 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 2,2 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 16 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.**
Tel.:71-230-82-23(24)